

Sinf _____ Ism, familiya _____ Sana _____

1. Assimilatsiya jarayonida ...

- A) aminokislotalardan oqsillar sintezlanadi
- B) oqsillar aminokislotalarga parchalanadi
- C) yirik organik molekulalarning fermentlar ta'sirida parchalanadi
- D) ATF sintezlanadi, hujayrada energiya jamg'ariladi.


2. Dissimilyatsiya – bu ...

- A) plastik almashinuv
- B) anabolizm
- C) energetik almashinuv
- D) biosintez reaksiyalari

3. Teri ultrabinafsha nurlar ta'sirida ... vitaminini sintezlaydi.

- A) A
- B) D
- C) B
- D) C

4. Siydik ayirish organlari orqali moddalar almashinuvi qoldiqlari odam organizmidan chiqarib yuborilishi qanday ketma-ketlikda sodir bo'ladi?

	1) ikkilamchi siydikning siydik jomiga tushishi 2) siydik pufagi devori muskullarining qisqarishi 3) kapsulada qonning filtrlanishi 4) kalavasimon kanalchalarda ikkilamchi siydikning hosil bo'lishi 5) ikkilamchi siydikning siydik yo'liga o'tishi
---	---

- A) 3,4,1,5,2
- B) 4,3,5,1,2
- C) 1,3,4,2,5
- D) 1,3,4,5,2

5. Terining epidermis (a), derma (b) va teriosti yog‘ qavati (c) xususiyatlarini aniqlang.

XUSUSIYATLAR	TERI QAVATLARI
1) yog‘ va ter bezlari joylashgan.	a) derma
2) g‘ovak tolali biriktiruvchi to‘qimadan iborat	b) epidermis
3) tig‘iz joylashgan, epiteliy hujayralardan iborat	c) gipoderma

- A) 1-a; 2- c; 3-b
- B) 1-c; 2- a; 3-b
- C) 1-a; 2- b; 3-c
- D) 1-b; 2- c; 3-a

6. Reflektor yoyi bo‘ylab nerv impulsining o‘tish yo‘lini aniqlang.

- 1) sezuvchi neyron
 - 2) retseptor
 - 3) harakatlantiruvchi neyron
 - 4) ishchi organ
 - 5) markaziy nerv sistemasi
- A) 4-3-5-1-2
 - B) 4-2-1-5-3
 - C) 2-3-5-1-4
 - D) 2-1-5-3-4

7. Nerv hujayralari haqidagi ma’lumotlar to‘g‘rimi?

- 1. Akson orqali nerv impulslari nerv hujayrasi tanasiga uzatiladi.
 - 2. Bir neyronning aksoni ikkinchi neyron dendritlari bilan tutashadi.
- A) faqat 1 to‘g‘ri
 - B) faqat 2 to‘g‘ri
 - C) har ikki ma’lumot to‘g‘ri
 - D) har ikki ma’lumot noto‘g‘ri

8. Vegetativ nerv sistemasi qaysi jarayonlarni boshqaradi?

- 1) diafragmaning qisqarishi
 - 2) ichak peristaltikasi
 - 3) yurak sistolasi
 - 4) ko‘zni yumib ochish
 - 5) ko‘z qorachig‘ining kengayishi
 - 6) ovqatni chaynash
- A) 1,4,6
 - B) 2,3,5

- C) 1,4,5
D) 2,3,6

9. Nefron qismlari va ularning xususiyatlari o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlang.

XUSUSIYATLAR	NEFRON QISMLARI
1) reabsorbtsiyani amalga oshiradi	a) nefron kapsulasi
2) filtrlashni amalga oshiradi	b) egri-bugri kanalchalar
3) birlamchi siydik hosil bo'lishida ishtirok etadi	
4) ikkilamchi siydik hosil bo'lishida ishtirok etadi	
5) suyuqlik kapillyarlardan o'tadi	
6) suyuqlik kapillyarlarga o'tadi	

- A) a – 2,3,6; b – 1,4,5
B) a – 1,4,6; b – 2,3,5
C) a – 2,3,5; b – 1,4,6
D) a – 1,4,5; b – 2,3,6

10. Berilgan har bir to'g'ri fikrga "ha", noto'g'ri fikrga "yo'q" javobini bering.

1. Bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'i kulrang moddadan iborat.
 2. Kulrang modda sezuvchi neyronlar tanasi va ularning o'simtalaridan iborat.
 3. Somatik nerv sistemasi periferik va vegetativ nerv sistemalaridan iborat.
 4. Vegetativ nerv sistemasi skelet muskullari faoliyatini muvofiqlashtiradi va sezuvchanlikni ta'minlaydi.
 5. Ovqat hidini sezganda so'lak ajralishi shartsiz refleks hisoblanadi
- A) 1-ha, 2-yo'q, 3-yo'q, 4-yo'q, 5-ha
B) 1-yo'q, 2-ha, 3-yo'q, 4-ha, 5-yo'q
C) 1-ha, 2-yo'q, 3-ha, 4-yo'q, 5-yo'q
D) 1-ha, 2-yo'q, 3-yo'q, 4-yo'q, 5-yo'q

Kalit:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
bilish -2,5 ball	bilish -2,5 ball	bilish -2,5 ball	qo'llash -4,5 ball	qo'llash -4,5 ball	qo'llash -4,5 ball	qo'llash -4,5 ball	qo'llash -4,5 ball	qo'llash -4,5 ball	tahlil va mulohaza – 5,5 ball
A	C	B	A	A	D	B	B	C	D

